



Transport va avtomobilsozlik sohalarida
kasbiy malakalarni rivojlantirish bo'yicha
tarmoq kengashi

Havo transporti sohasidagi xizmatlar

TARMOQ MALAKA RAMKASI



TOSHKENT - 2026

“Havo transporti sohasidagi xizmatlar” tarmoq malaka ramkasi 2025-yil 18-dekabrdagi Kasbiy malakalarni rivojlantirish bo'yicha respublika kengashi majlisining 114-son bayoni bilan tasdiqlangan “Tarmoq malaka ramkasi shakli” va Milliy malaka tizimini rivojlantirish instituti direktorining 2025-yil 19-dekabrdagi 55-son buyrug'i bilan tasdiqlangan “Tarmoq malaka ramkasini ishlab chiqish va yangilash metodologiyasi”ga asosan Transport va avtomobilsozlik sohalarida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo'yicha tarmoq kengashi tomonidan ishlab chiqilgan.

Havo transporti sohasidagi xizmatlar

TARMOQ MALAKA RAMKASI

Reyestr raqami:

--

1. Umumiy talablar va asosiy tushunchalar

Ushbu tarmoq malaka ramkasi O'zbekiston Respublikasi Milliy malakalar ramkasi va Mashg'ulotlar milliy klassifikatsiyasiga muvofiq ishlab chiqilgan bo'lib, havo transporti sohasidagi xizmatlar bo'yicha sakkizta malaka darajasini tarmoqda qo'llaniladigan bilim, ko'nikma (mahorat), mas'uliyat va mustaqillik xususiyatiga qarab tasniflaydi.

Tarmoq malaka ramkasi havo transporti sohasidagi xizmatlar tarmog'ida malaka darajalarining yagona shkalasini belgilaydi, malakalarning qiyoslanishini ta'minlaydi, kasbiy standartlar va mutaxassislar malakasini muvofiqligini tasdiqlash hamda ularning malakasini tan olish tizimi uchun asos hisoblanadi.

Havo transporti yo'nalishi bo'yicha tarmoq malaka ramkasining asosiy maqsadi havo transporti tarmog'ida malaka darajalarining tizimlashtirilgan tavsifini, iqtisodiyotning istiqbollari va ustuvor yo'nalishlarini hamda tarmoqning strategik rivojlanishini hisobga olgan holda Milliy malaka ramkasi asosida mavjud malakalarga qo'yilgan talablarni shakllantirishdan, shuningdek, tarmoqlararo kompetensiyalar va turdosh mashg'ulotlar (malakalar) turlarini ko'rsatgan holda kasblar va lavozimlarni malaka darajalari bo'yicha xaritalashdan iborat.

Havo transporti tarmog'ining spetsifikasi va korxona mutaxassislarning faoliyati havodagi harakat xavfsizligini ta'minlash bilan bevosita bog'liqligi sababli, mutaxassislarning maxsus tayyorgarligini talab qiladi. TMRda har bir lavozim bajaradigan funksiyalarning murakkablik darajasi va unga qo'yiladigan mas'uliyat darajasi aks etgan. Bu esa xodimlarning malakasiga bo'lgan talabni, kasbiy ma'lumot tizimi bitiruvchilari malakasiga bo'lgan talabni va tarmoq talablariga javob beradigan kasb standartlarini ishlab chiqish kabi talablar doirasini aniqlaydi va mehnat haqini to'lash mexanizmini takomillashtirish imkoniyatini yaratadi.

Tarmoq malaka ramkasining vazifasi keyinchalik kasbiy standartlarni ishlab chiqish uchun havo transporti tarmog'idagi joriy va istiqbolli texnologiyalarni hisobga olgan holda ishchilarning funksional xatti-harakatlari, ko'nikmalari, qobiliyatlari va bilimlariga qo'yiladigan talablarni aniqlashdan iborat.

Ushbu TMRda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

bilim – kasbiy faoliyat doirasidagi vazifalarni bajarish uchun zarur bo'ladigan, o'rganilgan va o'zlashtirilgan ma'lumotlar;

guruh – iqtisodiy faoliyat turlari umumdavlat tasniflagichi (IFUT (2.1-tahrir) bo'yicha iqtisodiy faoliyatning keng sohasini o'z ichiga olgan faoliyat turi;

iqtisodiy faoliyat turi – savdo uchun mo'ljallangan mahsulot ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) maqsadida u yoki bu turdagi resurslarni (uskunalar, mehnat, texnologiya va boshqalar) birlashtirishga asoslangan ishlab chiqarish jarayoni;

informal ta'lim – aniq maqsadga yo'naltirilgan, ammo institutsionallashtirilmagan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtirmagan), rasmiy yoki norasmiy ta'limdan ko'ra kamroq tashkillashtirilgan va tarkiblashtirilgan hamda oiladagi, ish joyidagi, yashash joyidagi va kundalik hayotdagi o'quv faoliyatini o'z ichiga olgan ta'lim shakli;

kasb – ko'nikma va bilimlarni talab qiladigan muayyan funksiyalar va vazifalarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat turi;

kasb xaritasi – kasb nomi, mehnat funksiyalari tavsifi, kasbga qo'yiladigan asosiy xususiyatlar va talablarni o'z ichiga olgan muayyan kasb to'g'risidagi tizimlashtirilgan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan kasbiy standartning tarkibiy elementi;

kasbiy standartlar reyestri – bu kasbiy standartlarning nomi, qamrab olingan kasblar, uni qabul qilishga oid qaror (buyruq) rekvizitlari hamda amal qilish muddatini o'z ichiga olgan tizimlashtirilgan ro'yxat;

kichik sinf – sinf ichidagi faoliyatning aniq turlarini ifodalovchi faoliyat turi;

ko'nikma – mehnat vazifasi doirasida alohida yoki yakka harakatlarni jismoniy va aqliy jihatdan bajarish;

mehnat funksiyasi – kasbiy faoliyat doirasida xodim tomonidan belgilangan natijaga erishish uchun amalga oshiriladigan mehnat vazifalari majmui;

mehnat vazifasi – mehnat funksiyasi doirasida xodimga yuklanadigan (topshiriladigan) ishning aniq turi;

mehnat harakatlari – xodimning mehnat predmeti bilan o'zaro ta'sirida muayyan mehnat natijasiga erishiladigan jarayon;

norasmiy ta'lim – ta'lim xizmatlari taqdim etilishini ta'minlovchi shaxs yoki tashkilot tomonidan institutsionallashtirilgan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtiruvchi), aniq maqsadga yo'naltirilgan va rejalashtirilgan, shaxsni butun hayoti davomida o'qitishdagi rasmiy ta'limga qo'shimcha va (yoki) uning muqobil shakli;

sinf – guruh ichida iqtisodiy faoliyatning o'rtacha darajada (tor doirada) aniqlangan turlarini ifodalovchi faoliyat turi;

Aeronavigatsiya – havo kemalarining (samolyot, vertolyot va boshqalar) havoda harakatlanishini rejalashtirish, boshqarish va nazorat qilish jarayonlarini o'z ichiga olgan fan va amaliy faoliyat sohasidir;

Dispetcherlik – ishlab chiqarishning uzluksizligini ta'minlash maqsadida, uning har bir jarayonini maxsus texnika vositalari yordamida operativ nazorat qilish, muvofiqlashtirish va markazlashgan boshqaruvni amalga oshirish;

Parvoz xavfsizligi – fuqaro yoki harbiy aviatsiyada har bir parvoz davomida yo'lovchilar, ekipaj, havo kemasi va atrof-muhit uchun xavf-xatarlarni minimallashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar, qoidalar va tizimlar majmuasi;

Havodagi harakatni boshqarish (HHB) – bu havo kemalarining (samolyot, vertolyot va boshqalar) osmondagi harakatini tartibga solish, muvofiqlashtirish va xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan tizimli faoliyat;

PBN (Performance-Based Navigation) – aviatsiya navigatsiyasi sohasida qo'llaniladigan, an'anaviy yerga asoslangan navigatsiyadan farqli ravishda havo kemalarining aniq ishlash (performance) ko'rsatkichlariga asoslangan zamonaviy navigatsiya konsepsiyasi;

International Civil Aviation Organization (ICAO) – BMT (Birlashgan Millatlar Tashkiloti) tarkibidagi ixtisoslashgan agentlik bo'lib, fuqarolik aviatsiyasi sohasida xalqaro standartlar, qoidalar va xavfsizlik tizimlarini ishlab chiqish, muvofiqlashtirish va nazorat qilish bilan shug'ullanadi.

TMRni ishlab chiqishda foydalanilgan asosiy normativ–huquqiy hujjatlar:

O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi;

O'zbekiston Respublikasining Havo kodeksi;

O'zbekiston Respublikasi Oliy Sovetining 1992-yil 3-iyuldagi "Xalqaro fuqaro aviatsiyasi haqida Konvensiyani ratifikatsiya qilish to'g'risida"gi 666-XII-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Oliy Sovetining 1993-yil 7-maydagi "Xalqaro fuqaro aviatsiyasi to'g'risidagi Konvensiyaga doir tuzatishlarni ratifikatsiya qilish to'g'risida"gi 865-XII-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Oliy Sovetining 1993-yil 29-dekabrda "Xalqaro fuqaro aviatsiyasi xavfsizligiga doir Konvensiyalar va Bayonnomaga qo'shilish to'g'risida"gi 1016-XII-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Oliy Sovetining 1993-yil 7-maydagi "O'zbekiston Respublikasining Havo kodeksini amalga kiritish tartibi to'g'risida"gi 864-XII-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 27-dekabrda "O'zbekiston Respublikasi fuqaro havo kemalarining aviatsion hodisa va insidentlarini tekshirish qoidalarini tasdiqlash to'g'risida"gi 505-son qarori (Aviatsiya qoidolari O'zR-121);

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 4-sentyabrda "O'zbekiston Respublikasi fuqaro va eksperimental aviatsiyasi aviatsiya xodimlariga tegishli lavozimlar ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi 313-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 21-avgustda "Transport sohasidagi faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash to'g'risida nizomlarni tasdiqlash haqida"gi 360-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007-yil 28-dekabrda "O'zbekiston Respublikasi fuqaro va eksperimental aviatsiyasi uchuvchilar tarkibiga yoshdagi cheklovlarni kiritish to'g'risida"gi 1099-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 18-aprelda "O'zbekiston Respublikasi havo bo'shlig'idan foydalanish qoidalarini tasdiqlash to'g'risida"gi 114-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 31-dekabrda "Havo kemalariga texnik xizmat ko'rsatish tashkilotiga sertifikat berish tartibi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash to'g'risida"gi 354-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 17-dekabrda qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi fuqaro aviatsiyasi havo kemalari parvozlari xavfsizligini ta'minlash bo'yicha davlat dasturi" (Aviatsiya qoidolari O'zR-10);

Parvozlar xavfsizligini nazorat qilish davlat inspeksiyasi boshlig'ining 2004-yil 26-aprelda "O'zbekiston Respublikasi fuqaro aviatsiyasi aviatsiya xodimlariga guvohnomalar va malaka berish bo'yicha aviatsiya qoidalarini tasdiqlash haqida"gi 49-son buyrug'i;

Davavianazorat boshlig'ining 2007-yil 12-sentyabrda "O'zbekiston Respublikasi havo kengliklarida fuqaro va eksperimental aviatsiya parvozlari qoidolari to'g'risida"gi 141-son buyrug'i;

Davavianazorat boshlig'ining 2011-yil 17-fevralda "Fuqaro aviatsiyasida havodagi harakatga xizmat ko'rsatish to'g'risida"gi 23-son buyrug'i;

Davavianazorat boshlig'ining 2013-yil 12-iyunda "Fuqaro aviatsiyasida radiotelefon aloqa"ni tasdiqlash to'g'risidagi 22-N-son buyrug'i (Aviatsiya qoidolari O'zR-96);

Davavianazorat boshlig'ining 2002-yil 27-dekabrda "Fuqaro aviatsiyasida aeronavigatsiya axboroti xizmatlari"ni tasdiqlash to'g'risidagi 155-son buyrug'i (Aviatsiya qoidolari O'zR-174);

Davavianazorat boshlig'ining 2002-yil 21-noyabrda "Parvozlarni radiotexnik ta'minoti va aviatsion elektr-alloqa"ni tasdiqlash to'g'risidagi 141-son buyrug'i (Aviatsiya qoidolari O'zR-176);

Davavianazorat boshlig'i hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Boshgidromet boshlig'ining 2002-yil 26-dekabrda 154/332-sonli qo'shma buyrug'i bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi fuqaro va eksperimental aviatsiyasining meteorologik ta'minoti" (Aviatsiya qoidolari O'zR-180);

Parvozlar xavfsizligini nazorat qilish davlat inspeksiyasi boshlig'ining 2011-yil 6-dekabrda 156-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi fuqaro va eksperimental aviatsiya aerodromlarini foydalanishining me'yorlariga yaroqlilikni baholash uslubi" (Aviatsiya qoidolari O'zR AQ-158);

"O'zbekiston Respublikasida parvoz xavfsizligiga tahdid soluvchi obyektlar markirovkasiga qo'yiladigan talablar" (Aviatsiya qoidolari O'zR AQ-150);

“O‘zbekiston Respublikasi fuqaro va eksperimental aviatsiya aerodromlarini ekspluatatsiyaga yaroqlilik me‘yorlari” (Aviatsiya qoidolari O‘zR AQ-153);

Parvozlarni radiotexnik ta‘minlashda yerdagi uskunalardan foydalanishni tashkil qilish bo‘yicha qo‘llanma (MAK Bosh direktorining 2013-yil 11-iyuldagi 209-son buyrug‘i);

“Uzbekistan Airways” aksiyadorlik jamiyati Ustavi;

“Uzbekistan Airways” aksiyadorlik jamiyati xodimlarining axloq-odob qoidolari;

“Uzbekistan Airways” aksiyadorlik jamiyati xodimlarining ichki mehnat tartibi qoidolari;

“Uzbekistan Airways” aksiyadorlik jamiyatining parvozlarni ishlab chiqish bo‘yicha qo‘llanmasi;

Xalqaro fuqaro aviatsiyasi tashkiloti (ICAO) standartlari va tavsiya etilgan amaliyotlari;

MAKning 2017-yil 17-noyabrdagi “Fuqaro aviatsiyasi uchuvchilarini tayyorlash kurslarida o‘qitish uchun nomzodlarni tanlash bo‘yicha nizomni tasdiqlash to‘g‘risida”gi buyrug‘i;

MAKning 2017-yil 14-dekabrdagi “MAK MIDX OP va UP smena bosh dispetcheri hamda dispetcheri ish texnologiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 360-sonli buyrug‘i.

Asosiy qisqartmalar:

MMR – milliy malakalar ramkasi;

TMR – tarmoq malaka ramkasi;

IFUT – O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlarining umumdavlat tasniflagichi;

MMK – Mashg‘ulotlarning milliy klassifikatori;

GPS – Global joylashuv tizimi (Global Positioning System);

PBN – Performance-Based Navigation;

ICAO – International Civil Aviation Organization;

DUK – Davlat unitar korxonasi;

O‘MM – O‘zbekiston Milliy Moliya tizimi;

MAK – Milliy aviakompaniya;

MIDX – Main integrated dispatching center;

OP – Operations;

UP – Utility Processes.

2. Tarmoq malaka ramkasining pasporti

Soha (tarmoq) ning tavsifi:

Havo transporti sohasidagi xizmatlar-yo'lovchi va yuk tashish, aeroport infratuzilmasini boshqarish, parvozlarni ta'minlash, aviatsiya xavfsizligi, texnik xizmat ko'rsatish hamda servis xizmatlarini o'z ichiga oladi. Ushbu soha yuqori darajadagi xavfsizlik, aniqlik va mas'uliyatni talab qiluvchi strategik ahamiyatga ega transport tarmog'i hisoblanadi. Tarmoqda faoliyat yurituvchi mutaxassislar xalqaro va milliy standartlar asosida kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi lozim. Soha xizmatlarining sifati parvozlarning xavfsizligi, xizmat ko'rsatish darajasi va logistika samaradorligini bevosita ta'minlaydi.

Havo transporti sohasidagi xizmatlar sohasidagi tarmoq malaka ramkasi quyidagi iqtisodiy faoliyat turlari uchun ishlab chiqilgan.

Seksiya nomi:

C – seksiyasi Ishlab chiqaradigan sanoat;

H – Tashish va saqlash;

O'zbekiston Respublikasida havo transporti sohasidagi xizmatlar sohasidagi TMR Iqtisodiy faoliyat turlari tasniflagichi (IFUT-2.1)ga muvofiq quyidagi iqtisodiy faoliyat turlarini qamrab oladi.

T/r	Seksiya	Bo'lim	Guruh	Sinf	Kichik sinf
1.	C – seksiyasi Ishlab chiqaradigan sanoat	33 Mashina va uskunalarni ta'mirlash, texnik xizmat ko'rsatish va o'rnatish	33.1 Tayyor metall buyumlar, mashina va uskunalarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish	33.16 Fuqarolik havo va kosmik kemalarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish	33.16.0 Fuqarolik havo va kosmik kemalarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish
2.	H – seksiyasi Tashish va saqlash	51 Havo transporti	51.1 Havo yo'lovchi transporti	51.10 Havo yo'lovchi transporti	51.10.0 Havo yo'lovchi transporti
			51.2 Havo yuk transporti va kosmik transport tizimi	51.21 Havo yuk transporti	51.21.0 Havo yuk transporti
		52 Omborga joylashtirish, saqlash va yordamchi transport faoliyati	52.2 Transportda tashish bo'yicha yordamchi faoliyat	52.23 Havo transporti sohasidagi xizmatlar	52.23.0 Havo transporti sohasidagi xizmatlar
				52.24 Yuklarga ishlov berish	52.24.0 Yuklarga ishlov berish

TMR quyidagi kasbiy faoliyat turlari va mashg'ulotlar guruhlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan.

T/r	Mashg'ulot guruhi kodi	Mashg'ulot guruhi nomi
1.	13244	Havo transporti sohasida bo'linmalar rahbarlari
2.	12190	Boshqa mashg'ulotlar guruhlariga kiritilmagan moliyaviy-iqtisodiy va ma'muriy ishlar bo'yicha boshqaruvchilar, b.g.k.
3.	13490	Boshqa mashg'ulot guruhlariga kiritilmagan ixtisoslashtirilgan xizmat ko'rsatish sohasidagi rahbarlar, b.g.k.
4.	11200	Markaziy tashkilotlar, muassasalar va korxonalarning rahbarlari
5.	21446	Aviatsiya texnikasi va tizimlari bo'yicha muhandislar
6.	23201	Kasbiy ta'lim tashkilotlari o'qituvchilari
7.	31145	Nazorat-o'lchov asboblari elektronikasi bo'yicha texniklar
8.	31156	Aviatsiya texnikasi va tizimlari bo'yicha texniklar
9.	31157	Havo-sovitish va konditsioner tizimlari bo'yicha texniklar
10.	31292	Tashishni tashkil etish va transport xavfsizligi xodimlari
11.	31531	Samolyot uchuvchilari va yo'riqchilari
12.	31532	Havo kemasi komandirlari va boshqaruvchilar
13.	31533	Bort xodimlari (mexanik va xizmat ko'rsatish)
14.	31534	Aviatsiya shturmanlari
15.	31539	Boshqa mashg'ulotlar guruhlariga kiritilmagan samolyot uchuvchilari va shu kabi mutaxassislar, b.g.k.
16.	31540	Havo harakatini boshqarish dispetcherlari
17.	31550	Havo-kemalari harakati xavfsizligi bo'yicha texnik-elektroniklar
18.	35222	Telekommunikatsiya uskunalar operatorlari
19.	43211	Omborlarda moddiy boyliklarni hisobga olish, qabul qilish va berish bilan band bo'lgan xodimlar
20.	43239	Boshqa mashg'ulotlar guruhlariga kiritilmagan transportni hisobga olish bilan shug'ullanadigan xodimlar, b.g.k.
21.	51111	Havo kemalari bortkuzatuvchilari va styuardlar
22.	54190	Boshqa mashg'ulot guruhlariga kiritilmagan fuqarolar va mulkni himoya qiladigan xizmatlar xodimlari, b.g.k.
23.	74213	Radioelektron va navigatsiya qurilmalari chilangarlari va ta'mirlovchilari
24.	71321	Metall bo'yoqchilari
25.	72320	Uchish apparatlarini ta'mirlovchi chilangarlar
26.	75340	Mebel pardozchilari va turdosh kasblar ishchilari
27.	91220	Transport vositalarini yuvuvchilar

3. Tarmoq tahlili

Havo transporti – yo‘lovchilar, pochta va yuklarni havo yo‘llari orqali tashishni amalga oshiradigan transport turi. Uning afzalligi shundaki, yuqori uchish tezligi hisobiga tashish vaqtini sezilarli darajada tejaydi, yer va suv yo‘llari bo‘lmagan manzillar bilan bevosita transport qatnovini yo‘lga qo‘yish imkoniyatlarini yaratadi. Bugungi kunda O‘zbekistonda havo transporti tizimida 4 ta korxona faoliyat yuritadi. Ular quyidagilar: Fuqaro aviatsiyasi agentligi, “O‘zaeronavigatsiya” Markazi DUK, “Uzairways” AJ va “Uzbekistan Airports” AJ.

Fuqaro aviatsiyasi agentligi.

“O‘zaviatsiya” agentligi fuqaro aviatsiyasi va eksperimental aviatsiyada havo kemalari parvozlarining xavfsizligini, shuningdek, noqonuniy aralashish harakatlaridan himoya qilishni ta‘minlash bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi aviatsiya ma‘muriyati funksiyasini amalga oshiruvchi davlat organi hisoblanadi.

U quyidagi asosiy ishlarni tashkil etadi:

Havo hududidan foydalanuvchilarning O‘zbekiston Respublikasi havo hududidan xavfsiz foydalanishlari, parvozlar insonlar sog‘lig‘i va hayotiga, atrof-muhitga hamda davlat manfaatlariga xavf solmagan holda amalga oshirilishini ta‘minlash, o‘z vakolatlari doirasida havoda harakatlanishga xizmat ko‘rsatish tashkil etilishini va O‘zbekiston Respublikasining havo hududidan foydalanishni nazorat qilish;

O‘zbekiston Respublikasi fuqaro aviatsiyasi va uning obyektlarining xavfsiz faoliyat ko‘rsatishini, shuningdek, aviatsiyani noqonuniy aralashish harakatlaridan himoya qilish choralarini amalga oshirish orqali havo kemalari yo‘lovchilari hamda ekipaj a‘zolarining hayoti va sog‘lig‘i xavfsizligini ta‘minlash;

Parvozlar xavfsizligini ta‘minlash bo‘yicha fuqaro aviatsiyasi faoliyati sohasidagi sertifikatlash ishlarini tashkil etish va ta‘minlash;

Fuqaro aviatsiyasi va eksperimental aviatsiya faoliyati sohasida davlat nazoratini olib borish;

Xalqaro tashkilotlarda O‘zbekiston Respublikasi fuqaro aviatsiyasi manfaatlarini ifoda etish.

“O‘zaeronavigatsiya” Markazi DUK.

“O‘zaeronavigatsiya” Markazi davlat unitar korxonasi 1991-yilda tashkil topgan. O‘zbekiston Respublikasi hududida aeronavigatsiya sohasida xizmat ko‘rsatuvchi yagona korxona hisoblanadi. Havodagi harakatni tashkil qilish va unga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiradi.

“O‘zaeronavigatsiya” Markazining asosiy faoliyat yo‘nalishi – Havodagi harakatga xizmat ko‘rsatish, parvozlar xavfsizligini yer ustidagi vositalaridan foydalangan holda ta‘minlash asosiy vazifasi hisoblanadi.

Hozirgi kunda “O‘zaeronavigatsiya” Markazi DUKda 1300 ortiq xodimlar o‘z faoliyatini yuritadi. Ularning 58 foizini oliy ma‘lumotli xodimlar, 42 foizini o‘rta va o‘rta maxsus ma‘lumotli xodimlar tashkil etadi.

Malakali mutaxassislarni tayyorlash uchun chet elning taniqli aviatsiya oliygohlarida malaka oshirishni tashkil etish va xalqaro tajribani o'rganish rejalashtirilgan.

Sifatli xizmat ko'rsatish, parvozlar xavfsizligini yuqori darajada ta'minlash va havo trassalarini optimallashtirish orqali O'zbekiston Respublikasi havo hududiga ko'plab xalqaro aviakompaniyalarni jalb etadi.

Respublika bo'ylab har bir aeroport hududida Markazning bo'linmalari joylashgan, ular zamonaviy havo harakatini boshqarish tizimlari bilan jihozlanmoqda.

"O'zaeronavigatsiya" Markazi DUK ICAO Xalqaro tashkilotining a'zosi va uning o'rnatilgan qoidalariga amal qilgan holda ish faoliyati yuritiladi. ICAO Xalqaro tashkilotining talablariga muvofiq Havodagi harakatni boshqarish dispetcherlari aviasion ingliz tilining sertifikat bilan tasdiqlangan holda eng kamida 4 bosqich bilimiga ega bo'lishi kerak. Aviatsiya mutaxassislarni tayyorlash Toshkent davlat transport universitetining "Aviatsiya transporti muhandisligi" va "Elektrotexnika va kompyuter muhandisligi" fakultetlarida amalga oshiriladi.

2023-yilda "O'zaeronavigatsiya" markazi DUK qoshida O'quv mashq majmuasi ochilgan bo'lib, ushbu majmua va dunyoning boshqa bir qator bilim yurtlarida markazning HHB dispetcher va muhandis-texniklar tarkibi o'z vaqtida malaka oshirib bormoqdalar. Shuningdek, "O'zaeronavigatsiya" Markazi DUK mutaxassislari AQSH, Ispaniya, Janubiy Koreya, BAA, Avstriya, Turkiya, Ozarbayjon va Qozog'iston kabi davlatlarda o'z bilim va tajribalarini oshirib kelmoqdalar. Kelajakda "O'zaeronavigatsiya" Markazi DUK o'z mutaxassislarni ilg'or texnologiyalarni o'rganish uchun yanada ko'proq rivojlangan davlatlarga yuborishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan.

Respublikamizda Zomin, Shaxrisabz va Qoqon aerodromlari ochilishi bilan birgalikda ushbu aerodromlar radioaloqa va radionavigatsiya vositalari bilan jihozlandi, hamda ushbu aerodromlarda havodagi harakatga xizmat ko'rsatish va parvoz axborot xizmati ko'rsatilishi ta'minlandi.

2025-yilda "O'zaeronavigatsiya" markazi DUK Termiz hududiy bo'linmasida havodagi harakatni boshqarish (HHB) minorasi yangi binosi ochildi. Termiz hududiy bo'linmasida zamonaviy radioaloqa va radionavigatsiya vositalari bilan jihozlangan bo'lib, havodagi harakatni tashkil etish soatiga 12 ta, hamda yil davomida 3 168 ta havo kemalariga xizmat ko'rsatishga qodir.

Tez orada Andijon, Namangan, Buxoro va Farg'ona aeroportlarida ham xuddi shu kabi zamonaviy havo harakatini boshqarish binolarini (minoralarini) qurilishini boshlash rejalashtirilgan.

Xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganib "O'zaeronavigatsiya" markazi DUK kelajakda amalga oshirishi ko'zda tutilgan loyihalar rejasini ishlab chiqqan.

Unga ko'ra:

– "O'zbekiston Respublikasida PBN (Performance Base Navigation) xususiyatlariga asoslangan navigatsiyani joriy etish Rejasi"ni amalga oshirish;

– Qo‘shni davlatlar bilan kelishilgan holda yangi HHB hamda zonal navigatsiya marshrutlarining yo‘nalishlarini joriy etish orqali O‘zbekiston Respublikasi samoviy hududi tuzilmasini takomillashtirish;

– O‘zbekiston Respublikasi havo kengligida yagona o‘tish eshelonini joriy etish;

– HHB AT Toshkent Markazi va Samarqand AT HHB Markazida “MANAGAIR” tizimining CPDLC (controller Pilot Data Link Communication) funksiyasini ishga tushirish;

– Yangi va yangidan ochilayotgan aerodromlarda havodagi harakatga xizmat ko‘rsatishni tashkil etish.

– ICAO tavsiyalari va ilg‘or xorijiy tajriba asosida Milliy aeronavigatsiya rejasini ishlab chiqish va tasdiqlash.

– O‘zbekiston Respublikasining PBN zonal navigatsiyasi uchun DME-DME (Distance Measure Equipment) tizimini bosqichma-bosqich joriy etish.

– Mobil BDPni xarid qilish va uni PRTT vositalari bilan jihozlash.

– Qo‘qon aeroporti va Farg‘ona vodiysiga ADS-B/MLAT tizimini o‘rnatish.

– Toshkent aeroporti:

– Ovozli aloqa tizimi (VCS), radioaloqa vositalari (UQT va QT) hamda ob‘yektiv nazorat tizimini xarid qilish va o‘rnatish.

– “3D Tower”. Dispetcherlik trenajor majmuasini xarid qilish;

– Andijon aeroporti:

– DME bilan ILS instrumental qo‘nish tizimining bir to‘plamini xarid qilish va o‘rnatish;

– DVOR/DME doppler-azimutal radiomayog‘i uskunalarini xarid qilish va o‘rnatish;

– Havo harakatini boshqarishning avtomatlashtirilgan tizimini (HHB AT) xarid qilish va o‘rnatish.

– Qarshi aeroporti:

– DME bilan ILS instrumental qo‘nish tizimining bir to‘plamini xarid qilish va o‘rnatish.

– Avtomatizatsiyalashtirilgan havo harakatini boshqarish tizimini (HHB AT) xarid qilish va o‘rnatish.

Rivojlantirish strategiyasi.

Unumdorlikni oshirish, parvozlar xavfsizligini yuqori darajada ta‘minlash, O‘zbekiston Respublikasining aeronavigatsiya tizimiga yangi texnologiyalarni joriy etish, O‘rta Osiyo mintaqasi aeronavigatsiya xizmatlarini yetkazib beruvchilar orasida yetakchi o‘rinlarga ega bo‘lishning asosiy vazifalarni bajarish maqsadida, “O‘zaeronavigatsiya” Markazi DUK butun dunyoda fuqaro aviatsiyasi rivojlanishining zamonaviy darajasini hisobga olgan holda “O‘zaeronavigatsiya” Markazi DUK 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasi ishlab chiqildi va amalga oshirilmoqda.

Rivojlantirishning maqsad va vazifalari:

O'zbekiston Respublikasini samoviy hududidan foydalanishni oshirish uchun jalb qilish.

HHTq global tizimining elementlarini bloklarga birlashtirilgan konsepsiyasini o'z ichiga olgan, global aeronavigatsiya rejasini tatbiq etish

O'zbekiston Respublikasida xarakteristikalariga (PBN) asoslangan, navigatsiyani tatbiq etish rejasini amalga oshirish

Qo'shni davlatlarning aeronavigatsiya xizmatlari yetkazib beruvchilar bilan hamkorlikda HHXK mavjud/yangi yo'nalishlarni muvofiqlashtirish .

Erkin yo'nalishlardan foydalangan holda samoviy hududlarni joriy etish.

Aeronavigatsiya xizmati sifatini oshirish.

HHXK kuzatuv tizimi va istiqbolli usullarni joriy etish;

Parvoz xavfsizligini boshqarish tizimini joriy etish va uni ommalashtirish;

Aeronavigatsiya axborotlarni boshqarish tizimiga o'tish. EADga ko'chish, Aeronavigasion axborotlar xizmatidan Aeronavigasion axborotlarni boshqarishga o'tishning asosiy qadamlaridan biri sifatida hisoblanadi.

Parvozlarni radiotexnik ta'minlash (PRTT) uskunalari zamonaviylashtirish bo'yicha uzoq muddatli rejani amalga oshirish;

Mutaxassislarni malakasini oshirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish.

Iqtisodiy samaradorlikni oshirish.

Korxona faoliyatining asosiy ko'rsatkichlarini doimiy ravishda monitoring qilish, takomillashtirish bo'yicha zarur choralarni ishlab chiqish.

Kutilayotgan natijalar.

– Ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirish;

– O'zbekiston Respublikasi samoviy hududining jozibadorligini oshirish;

– Navigatsiya aniqligini oshirish orqali parvozlarning xavfsizligini oshirish;

– Trayektoriyalarning fazoviy taqsimlanishini kamaytirish orqali samadorlikni oshirish;

– Atmosferaga zararli chiqindilarni tashlashni kamaytirish;

– O'zbekiston Respublikasi aerodromlarida tranzit oqimini va uchish-qo'nish operatsiyalarini oshirish;

Korxonani rivojlantirish uchun qo'shimcha daromad olish.

"Uzbekistan Airways" AJ 1992-yilda tashkil etildi, bu esa mamlakat fuqaro aviatsiyasining rivojlanishida yangi davrni boshlab berdi. Ana shu yillar mobaynida "Uzbekistan Airways" brendi barqaror, xavfsiz va ishonchli aviatashuvchi sifatida dunyoga tanildi. "Uzbekistan Airways" AJ mamlakatdagi eng yirik aviatashuvchi hisoblanadi. U 50 dan ortiq mamlakatlar va ko'plab shaharlarga, jumladan Yevropa, Osiyo va Yaqin Sharqdagi yirik aeroportlarga rejali reyslar bilan ichki va xalqaro havo xizmatlarini taqdim etadi. Kompaniya parkida Boeing 787, Airbus A320 va boshqa rusumdagi zamonaviy samolyotlar mavjud bo'lib, ular yuqori sifatli xizmat ko'rsatish va parvozlarning xavfsizligini ta'minlaydi.

“Uzbekistan Airways” AJ O‘zbekistonning yirik shaharlari bilan bir qatorda MDH, Yaqin Sharq, Yevropa va Osiyo mamlakatlari shaharlarini bog‘lovchi xalqaro va ichki reyslarni amalga oshiradi.

Kompaniya quyidagi asosiy xizmatlar turlarini taqdim etadi:

– Yo‘lovchilarni tashish: “Uzbekistan Airways” AJ milliy va xalqaro reyslarni amalga oshiradi, O‘zbekistonni Yevropa, Osiyo va Yaqin Sharqning ko‘plab mamlakatlari bilan bog‘laydi;

– Yuk tashish: Kompaniya yuk tashishni, shu jumladan tovarlarni etkazib berish uchun maxsus reyslarni amalga oshiradi.

“Uzbekistan Airways” AJ parki turli turdagi samolyotlarni, jumladan Boeing va Airbusni o‘z ichiga oladi, bu esa kompaniyaga bozorning turli segmentlariga xizmat ko‘rsatish imkonini beradi. So‘nggi yillarda aviakompaniya o‘z parkini faol ravishda yangilamoqda, xizmat ko‘rsatishni yaxshilash va ekspluatatsiya xarajatlarini kamaytirish uchun yangi samolyotlarni sotib oldi.

So‘nggi yillarda kompaniya iqtisodiy qiyinchiliklar va global aviatsiya sanoatidagi o‘zgarishlarga qaramasdan barqaror moliyaviy natijalarni namoyish etdi. “Uzbekistan Airways” AJ ham ichki bozorni, ham xalqaro yo‘nalishlarni faol rivojlantirmoqda, bu esa daromadlarni oshirishga xizmat qilmoqda.

Markaziy Osiyoning qoq markazida joylashgan O‘zbekiston Yevropa va Osiyo o‘rtasidagi tranzit havo transportida muhim rol o‘ynaydi va bu kompaniyaga ma‘lum yo‘nalishlarda raqobatdosh ustunlik beradi.

Kompaniya mijozlarga xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish, aeroportlar va samolyotlarni modernizatsiya qilish bo‘yicha faol ish olib bormoqda.

Loukosterlarning ko‘payishi va boshqa mintaqaviy aviakompaniyalar bilan raqobatning kuchayishi munosabati bilan “Uzbekistan Airways” AJ xalqaro yo‘nalishlardagi o‘z ulushini saqlab qolishda muammolarga duch kelmoqda.

Aviakompaniya ichki va xalqaro yo‘nalishlar tarmog‘ini kengaytirish ustida ishlamoqda. Bunga reyslar sonini oshirish va yangi yo‘nalishlarni ochish kiradi.

Kompaniya yo‘lovchilarga xizmat ko‘rsatishni yaxshilash uchun zamonaviy axborot texnologiyalarini, jumladan, onlayn ro‘yxatdan o‘tish, mobil ilovalar va mijozlarga yangi xizmatlarni joriy etishi kutilmoqda.

“Uzbekistan Airways” AJ tuzilmasi aviatsiya sohasida keng ko‘lamli xizmatlar ko‘rsatuvchi bir qancha korxonalarni ham o‘z ichiga oladi. Ushbu korxonalarga quyidagilar kiradi:

“Uzbekistan Airways Technics” MChJ: korxona aviakompaniya tomonidan xizmat ko‘rsatuvchi samolyotlarga texnik xizmat ko‘rsatish va ta‘mirlash uchun mas‘uldir. Faoliyatining asosiy yo‘nalishlari:

1) Samolyotlarga texnik xizmat ko‘rsatish. “Uzbekistan Airways Technics” aviakompaniyasi havo kemalariga rejali texnik xizmat ko‘rsatish, jumladan, rejali va rejadan tashqari texnik ko‘riklarni amalga oshiradi. Bu ishlar qatoriga havo kemalarining barcha tizimlari va mexanizmlarini tekshirish, ehtiyot qismlarni

almashtirish, shuningdek, xalqaro standartlarga muvofiq boshqa turdagi texnik xizmat ko'rsatish kiradi.

2) Samolyotlarni ta'mirlash. Kompaniya diagnostika va nosozliklarni bartaraf etish, favqulodda vaziyatlardan keyin samolyotlarni tiklash, shuningdek, bloklar va konstruktiv elementlarni almashtirish yoki ta'mirlashni o'z ichiga olgan to'liq ta'mirlash ishlarini amalga oshiradi.

3) Havo kemalarini modernizatsiya qilish va sertifikatlash. Uzbekistan Airways Technics zamonaviy texnologiyalar va aviatsiya xavfsizligi talablarini hisobga olgan holda eski samolyotlarni modernizatsiya qilish bilan shug'ullanadi. Kompaniya, shuningdek, xalqaro standartlar va aviatsiya organlarining talablariga muvofiq havo kemalarini sertifikatlashni amalga oshiradi.

4) Xodimlarni tayyorlash. Kadrlar, jumladan, aviatsiya texnikasi bilan ishlaydigan muhandis, texnik va mutaxassislarni tayyorlash va o'qitish kompaniya faoliyatining muhim qismidir. Korxonada xodimlarning yuqori kasbiy mahoratini ta'minlash maqsadida malaka oshirish kurslari va attestatsiyalar o'tkaziladi.

5) Boshqa aviakompaniyalarni texnik qo'llab-quvvatlash. Uzbekistan Airways Technics samolyotlariga xizmat ko'rsatishdan tashqari, O'zbekiston va xorijdagi boshqa aviakompaniyalarga ham xizmat ko'rsatadi. Bu bir martalik ta'mirlashni ham, uzoq muddatli texnik xizmat ko'rsatish va qo'llab-quvvatlash shartnomalarini ham o'z ichiga olishi mumkin.

"Ketring" MChJ aviakompaniyalar bortida yo'lovchilar uchun ovqat tayyorlash va yetkazib berish xizmatlarini, jumladan, turli toifadagi parvozlari uchun maxsus ishlab chiqilgan menyularni taqdim etuvchi kompaniya. Korxona quvvatlari Toshkent aeroportiga qo'nayotgan barcha aviakompaniyalarning samolyotlarini minglab porsiyada borta ovqat tayyorlash, issiq va sovuq taomlar, turli ichimliklar va mevalar bilan ta'minlash imkonini beradi. "Ketring"ning texnologik jihozlari 150 dona uskunani, "Gabriel", "SITA", AFTN xalqaro tizimini o'z ichiga olgan bo'lib, ular qisqa vaqt ichida yo'lovchi buyurtmalari haqida ma'lumot olish imkonini beradi. 300 dan ortiq turdagi sahna idishlari Global Test muvofiqlik sertifikatiga ega.

"O'quv mashg'ulot markazi " MChJ: O'quv-mashq markazi hududida aviatsiya xodimlarini tayyorlash va qayta tayyorlash bo'yicha asosiy o'quv muassasasi hisoblanadi.

O'quv-mashq markazi fuqaro aviatsiyasi uchuvchilari, bortkuzatuvchilari, shuningdek aviakompaniya parvozlari boshqarish markazlari va parvozlarni aeronavigatsiya ta'minoti xizmatlari uchun parvozlarni ta'minlash bo'yicha xodimlarni dastlabki tayyorlashni amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi aviatsiya ma'muriyati tomonidan ma'qullangan malaka oshirish kurslari ICAO va IATA standartlariga qat'iy rioya etilgan holda olib boriladi.

O'quv-mashq markazi zamonaviy trenajyor komplekslariga ega. Protsedura (Virtual Procedure Trainer) va to'la funksiyali trenajyorlarda (Full Flight Simulator Level D) mashg'ulotlar haftasiga 7 kun, sutkasiga 24 soat o'tkaziladi.

Murakkab trenajyor asbob-uskunalarining ishga shaylik darajasi 99,7% gacha bo'lishi ta'minlanadi.

“Uzbekistan Helicopters” MChJ: O'zbekistonda vertolyotlar bilan bog'liq aviatsiya sohasida xizmatlar ko'rsatadigan ixtisoslashgan kompaniya hisoblanadi. Kompaniya vertolyotlar yordamida yo'lovchilar va yuklarni tijoriy tashish bilan shug'ullanadi, shuningdek, davlat sektori, biznes va xususiy mijozlar ehtiyojlari uchun turli aviatsiya xizmatlarini ko'rsatadi. “Uzbekistan Helicopters” O'zbekiston aviatsiya infratuzilmasida yuqori sifatli va xavfsiz aviatsiya xizmatlarini ko'rsatuvchi muhim element hisoblanadi.

Faoliyatining asosiy yo'nalishlari:

1) Yo'lovchi tashish. “Uzbekistan Helicopters” mas'uliyati cheklangan jamiyati vertolyotlardan foydalangan holda yo'lovchi tashish xizmatlarini ko'rsatadi. Bu ichki yo'nalishlarda muntazam reyslar yoki individual buyurtmalar asosida charter reyslar bo'lishi mumkin. Kompaniya shaxsiy va korporativ mijozlarga xizmat ko'rsatadi.

2) Yuk tashish. Kompaniyaning vertolyotlari har xil turdagi yuklarni, jumladan, oddiy transport vositalari bilan tashilishi mumkin bo'lmagan yirik, og'ir va katta o'lchamli yuklarni tashish uchun ishlatiladi. Ushbu xizmatlar qurilish, energetika, qishloq xo'jaligi va boshqalar kabi turli sohalarida talabga ega.

3) Aviatsiya xavfsizligi va qutqaruv ishlari. Kompaniya havo patruli, qidiruv-qutqaruv ishlari, shuningdek, davlat sektori uchun maxsus missiyalar sohasida xizmatlar ko'rsatadi. Vertolyot ekipajlari tog'li hududlar, cho'llar yoki boshqa transport turlari qiyin bo'lgan chekka hududlar kabi borish qiyin bo'lgan hududlarda operatsiyalarni bajarish uchun joylashtirilishi mumkin.

4) Tibbiy evakuatsiyalar. “Uzbekistan Helicopters” mas'uliyati cheklangan jamiyati havoni favqulodda evakuatsiya qilish xizmatlarini ko'rsatadi. Bu kasal va jarohatlanganlarni tibbiyot muassasalariga, ayniqsa quruqlikdagi transport bilan kirish imkoniyati cheklangan hududlarga olib borishni o'z ichiga olishi mumkin.

5) Turistik va ekskursiya reyslari. Shuningdek, kompaniya sayyohlik va ekskursiya reyslarini tashkil etib, sayyohlarga O'zbekistonning tarixiy shaharlari, qo'riqxonalar va boshqa diqqatga sazovor joylari kabi go'zal va tarixiy ahamiyatga ega hududlarning panoramik manzarasidan bahramand bo'lish imkonini beradi.

Kompaniyada turli xil vazifalarni bajarish uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan turli modellarni o'z ichiga olgan zamonaviy vertolyotlar parki mavjud. Parkda yo'lovchi tashishdan tortib yuk tashish va qutqaruv operatsiyalarigacha bo'lgan turli operatsiyalarni bajarish uchun zarur texnologiyalar bilan jihozlanishi mumkin bo'lgan yengil va og'ir vertolyotlar mavjud.

Bugungi kunda “Uzbekistan Airways” AJ va uning tarkibiga kiruvchi korxonalarda 5000dan ziyod xodimlar faoliyat yuritmoqda. Ularning 46 foizini oliy ma'umotli xodimlar, 46 foizini o'rta va o'rta maxsus ma'lumotli xodimlar tashkil etadi.

Hozirgi kunda “Uzbekistan Airways” AJ uchun 2 ta mahalliy oliy ta'lim muassasalari kadrlar tayyorlab bermoqda.

“Uzbekistan Airways” AJda yiliga oʻrtacha 2000 dan ziyod xodimning malakasi oshiriladi. Shundan 10 foizi rahbar xodimlar, 64 foizi mutaxassis xodimlar va 26 foizi ishchi-xizmatchi xodimlar hissasiga toʻgʻri keladi. Har yili oʻrtacha 60 dan ortiq xodim xorijiy davlatlarda malaka oshirib qaytadi.

“Uzbekistan Airways” AJda yiliga oʻrtacha 500 dan ortiq taʼlim muassasalarining bitiruvchilari ishga qabul qilinadi, ularning 53 foizini oliy taʼlim muassasalari bitiruvchilari va 6 foizini professional taʼlim muassasalari bitiruvchilari tashkil etadi.

“Uzbekistan Airports” AJ Bugungi kunda havo transporti tarmogʻida 8 mingdan ziyod xodimlar faoliyat yuritmoqda. Ularning 30 foizini oliy maʼumotli xodimlar, 70 foizini oʻrta va oʻrta maxsus maʼlumotli xodimlar tashkil etadi.

Hozirgi kunda havo transporti tarmogʻi uchun 1 ta mahalliy oliy taʼlim muassasalari, shuningdek 1 ta professional taʼlim muassasalari kadrlar tayyorlab bermoqda. 2025-yil yakuni boʻyicha havo transporti tarmogʻida 4 mingdan ziyod xodimning malakasi oshirildi. Shundan 8 foizi rahbar xodimlar, 30 foizi mutaxassislar va 62 foizi ishchi-xizmatchi xodimlar hissasiga toʻgʻri keldi. 2025-yil yakuniga koʻra 90 dan ortiq xodim xorijiy davlatlarda malaka oshirib qaytdi.

Havo transporti tarmogʻida yiliga oʻrtacha 60 dan ortiq taʼlim muassasalarining bitiruvchilari ishga qabul qilinadi, ularning 40 foizini oliy taʼlim muassasalari bitiruvchilari va 60 foizini professional taʼlim muassasalari bitiruvchilari tashkil etadi.

Hozirgi kunda tarmoqda 6 dan ortiq ilmiy darajaga ega boʻlgan xodimlar faoliyat yuritmoqda, ularning 30 foizini fan doktori (DcS) va 70 foizini fan nomzodi va falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasiga ega xodimlar tashkil etadi.

Dunyodagi havo qatnovi kelgusi yillarda ikki baravar koʻpayadi, ammo uchuvchilar soni bu tezlikka mos kelmaydi. Bir tomondan, havo harakati doimiy ravishda oʻsib bormoqda. Dunyo boʻylab 330 ga yaqin aviakompaniyalarni (jumladan, Luxairni) birlashtirgan Xalqaro havo transporti assotsiatsiyasi (IATA) maʼlumotlariga koʻra, 20 yil ichida yillik yoʻlovchilar soni ikki baravar koʻpayib, 8,6 mlrd.

Boshqa tomondan, parvozlarga boʻlgan eksponensial talabni qondirish uchun aviakompaniya uchuvchilari yetarli emas. Tadqiqotlar ham, raqamlar ham farq qiladi. 2025-yilga kelib 50 ming uchuvchi, oʻn yil ichida esa 80 ming nafarga yetishi aytilgan. IATA hisob-kitoblariga koʻra, keyingi yigirma yil ichida butun dunyo boʻylab yarim million uchuvchini ishga olish kerak boʻladi. Shuning uchun EASA ishini ushbu tendentsiyadan ajratish qiyin. Yevropada har yili 5000 dan 6000 gacha yangi uchuvchilar kerak boʻladi.

Avia Solutions Group maʼlumotlariga koʻra, 2025-yildan 2043-yilgacha 649,000-674,000 yangi uchuvchiga global ehtiyoj kutilmoqda.

Boeing prognozi mintaqalar boʻyicha uchuvchilarga boʻlgan talabni aniqladi:

Osiyo-Tinch okeani: Mintaqaga 371 000 ga yaqin yangi uchuvchilar kerak boʻlishi kutilmoqda. Tez iqtisodiy oʻsish va bu sohada sayohatlarning koʻpayishi yuqori talabni keltirib chiqarmoqda.

4. Tarmoqqa tegishli kasblar ro'yxati

Mashg'ulotlarning milliy klassifikatori (MMK-2025) ga muvofiq tarmoqqa tegishli kasblar ro'yxati quyidagi jadvalda keltiriladi:

T/r	Lavozim va kasblar kodi	Lavozim va kasblar nomi
Fuqaro aviatsiyasi agentligi		
1.	13244009	Havo harakatini tashkil qilish va boshqarish sohasida boshqarma (bo'lim) boshlig'i (mudiri)
2.	13244011	Havo transportida (byuro, xizmat, guruh, baza, sho'ba, smena, ombor, otryad, maydon, partiya) boshlig'i (mudiri)
3.	13244003	Aviatsiya xavfsizligi bo'linmasi boshlig'i
4.	13244019	Parvozlarning xavfsizligi boshlig'i
5.	21529011	Parvozlarning xavfsizligining ornitologik ta'minoti muhandisi
6.	21529012	Parvozlarni yoritish texnikasi ta'minoti muhandisi
7.	21529013	Parvozlarning elektrotexnik ta'minoti bo'yicha muhandis
"O'zaeronavigatsiya" Markazi DUK		
8.	11200025	Markaz direktori
9.	11200025	Direktor (birinchi o'rinbosari, o'rinbosari)
10.	13244020	Parvozlarni radiotexnik ta'minlash boshqarmasi (majmuasi) boshlig'i
11.	12120007	Mehnatni tashkil etish va ish haqi bo'yicha bo'lim boshlig'i
12.	13211014	Bosh muhandis
13.	13301031	Uzel boshlig'i
14.	13244018	Parvozlarning rahbari (-yo'riqchi, -inspektor)
15.	13244005	Bosh dispatcher
16.	25291005	Axborot xavfsizligi bo'yicha mutaxassis
17.	31540016	Havodagi harakatni boshqarish dispatcheri
18.	31540017	Havodagi harakatni boshqarish dispatcheri-inspektori
19.	31540018	Havodagi harakatni boshqarish dispatcheri-yo'riqchi
20.	21429003	Yer usti inshootlaridan foydalanish bo'yicha muhandis
21.	31540020	Parvoz axborot xizmati dispatcheri
22.	31540002	Aeronavigatsiya axboroti bo'yicha dispatcher
23.	21446016	Parvozlarni radiotexnik ta'minlash bo'yicha muhandis
24.	21529015	Radionavigatsiya, radiolokatsiya va aloqa muhandisi
25.	35221005	Radionavigatsiya, radiolokatsiya va aloqa bo'yicha texnik
26.	21524003	Nazorat-o'lchov asboblari bo'yicha muhandis
27.	74121003	Elektr uskunalariga xizmat ko'rsatish va ta'mirlash bo'yicha elektromontyor
28.	26311005	Iqtisodchi
29.	25120006	Muhandis-dasturlovchi
30.	12112001	Devonxona mudiri
31.	24232002	Kadrlar bo'yicha muhandis
32.	22121142	Vrach-terapevt
33.	25291004	Axborot xavfsizligi bo'yicha muhandis
34.	21524003	Nazorat o'lchov asboblari va avtomatika bo'yicha muhandis
35.	21519014	Yong'in xavfsizligi signallari texnik vositalari muhandisi
36.	26191002	Harbiy majburiyatlilarni hisobga olish bo'yicha mutaxassis

37.	24112002	Buxgalter
38.	24111001	Auditor
39.	26111005	Yuriskonsult
40.	34110006	Yuriskonsult yordamchisi
41.	41100002	Ish yurituvchi
42.	21511006	Mhandis-elektrik
43.	21332005	Ekolog-muhandis
44.	34220005	Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha yo'riqchi-uslubchi
45.	26341005	Psixolog
46.	33410003	Arxivarius
47.	83220001	Avtomobil haydovchisi (yengil)
48.	61131001	Bog'bon
49.	61131006	Obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish muhandisi
50.	91129001	Ishlab chiqarish xonalar farroshi
51.	23201051	Havo transportida harakatni boshqarish va ekspluatatsiya qilish bo'yicha kasbiy ta'lim tashkiloti o'qituvchisi
52.	21531006	Telekommunikatsiya sohasida muhandis-texnolog
"Uzbekistan Airways" AJ		
53.	11200007	Aksiyadorlik jamiyati (konsern) raisi (birinchi o'rinbosari, o'rinbosari)
54.	13244012	Havo transportida departament (boshqarma, bo'lim) boshlig'i (mudiri)
55.	13244011	Havo transportida (byuro, xizmat, guruh, baza, sho'ba, smena, ombor, otryad, maydon, partiya) boshlig'i (mudiri)
56.	11200049	Zavod, korxona direktori va o'rinbosarlari
57.	13244025	Shtab boshlig'i
58.	11200045	Vakolatxona mudiri (rahbari)
59.	13490029	Otryad komandiri
60.	13244010	Havo kemasi komandiri
61.	12190003	Aviakompaniyaning xorijdagi vakili
62.	12190003	Aviakompaniyaning xorijdagi vakili, O'zbekiston Respublikasidagi
63.	31539001	Aviakompaniyaning xorijdagi vakili yordamchisi
64.	31531007	Uchuvchi-inspektor
65.	13244007	Bosh shturman
66.	31531010	Uchuvchi-yo'riqchi (-nazoratchi, -sinovchi)
67.	31531011	Uchuvchi-yo'riqchi uslubchi (katta)
68.	31534018	Shturman-yo'riqchi
69.	31533006	Bortkuzatuvchi-inspektor
70.	21446014	Havo kemalarini ekspluatatsiya qilish bo'yicha muhandis
71.	21446002	Aviatsiya sohasi muhandisi
72.	31145005	Havo kemalarining aviatsiya va radioelektron jihozlariga texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha aviatsiya texnigi
73.	31550008	Havo kemalarini (havo kemalari tizimini) ishlatish bo'yicha aviatsiya texnigi (mexanigi)
74.	31156015	Planer va dvigatellar bo'yicha aviatsiya mexanigi (texnik)
75.	31156016	Radio jihozlar bo'yicha aviatsiya mexanigi (texnik)
76.	31534010	Muassasi shturmani
77.	31531004	Havo kemasi ikkinchi uchuvchisi
78.	31539009	Shtab boshlig'i yordamchisi
79.	31533005	Bortkuzatuvchi-brigadir

80.	51111001	Bortkuzatuvchi
81.	72320008	Aviatsiya texnikalarini to'plovchi
82.	31156015	Planer va dvigatellar bo'yicha aviatsiya mexanigi (texnik)
83.	74213002	Havo kemalarining aviatsiya va radioelektron jihozlariga texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha aviatsiya mexanigi (texnik)
84.	43211007	Omborchi
85.	75340005	Oboychi
86.	91220004	Havo kemalarini yuvuvchi
87.	71321002	Metall bo'yoqchisi
88.	31533003	Bortda idish jamlovchi
"Uzbekistan Airports" AJ		
89.	13244011	Aerodrom (xizmati) boshlig'i
90.	21429002	Aerodromlardan foydalanish bo'yicha muhandis
91.	31550001	Aerodrom xizmati texnigi
92.	31540001	Aerodrom xizmati dispetcheri
93.	12190003	Aviakompaniyaning xorijdagi vakili
94.	71190002	Aerodrom ishchisi
95.	21529011	Muhandis-ornitolog
96.	31292000	Qushlarni va hayvonlarni qo'rqitish bo'yicha nazoratchi
97.	13244022	Parvozlarning elektr-yoritish texnik ta'minoti xizmati boshlig'i
98.	74129071	Apparaturalar, rele himoyasi va avtomatikani ta'mirlash bo'yicha elektromontyor
99.	74121003	Elektr uskunalariga xizmat ko'rsatish va ta'mirlash bo'yicha elektromontyor
100.	74129059	Parvozlarni ta'minoti tizimlarining yoritish texnikasi uskunalariga xizmat ko'rsatish bo'yicha elektromexanik
101.	13244022	Parvozlarni svetotexnik va elektrotexnik ta'minoti uzeli rahbari
102.	31145008	Parvozlarning elektrotexnik ta'minoti bo'yicha texnik
103.	31145008	Parvozlarni yoritish texnikasi ta'minoti bo'yicha texnik
104.	31131003	Elektrotexnik uskunani ta'mirlash bo'yicha texnik
105.	31132004	Elektr energiya hisobi bo'yicha texnik
106.	21521001	Muhandis-elektronchi
107.	25120006	Muhandis-dasturchi
108.	21449003	Uskunalar va materiallarni butlash bo'yicha muhandis
109.	74130014	Kabel yo'llarini ta'mirlash va montaj qilish bo'yicha elektromontyor
110.	21446002	Yetakchi muhandis
111.	13242027	Yoqilg'i quyish majmuasi boshlig'i
112.	21446002	Alohida muhim parvozlarni bo'yicha muhandis
113.	43211012	Yoqilg'i-moylash materiallari hisobini yuritish bo'yicha texnik
114.	52450003	Yoqilg'i quyish shoxobchasi operatori
115.	52450004	Yoqilg'i va yonilg'i-moylash materiallari quyish operatori
116.	82190036	To'kuvchi -quyuvchi
117.	21415003	Neft mahsulotlarini standartlashtirish va metrologiya bo'yicha muhandis
118.	21452005	Muhandis-laborant
119.	31119004	Texnik-laborant
120.	21452008	Yonilg'i-moy materiallari bo'yicha muhandis
121.	43232007	Dispetcher (pult uchun)
122.	81319256	Taqsimlovchi neft bazasi uskunalar mashinisti
123.	31159027	Yonilg'i-moy materiallari bo'yicha aviatsiya texnigi

124.	21524003	Nazorat-o'lchov uskunasi (apparatura) va avtomatika bo'yicha muhandis
125.	21443010	Uskunalaridan foydalanishni va ta'mirlashni tashkillashtirish bo'yicha muhandis
126.	72339006	Chilangar-ta'mirlovchi
127.	72220008	Nazorat -o'lchov anjomilari va avtomatika (NO'A va A) bo'yicha chilangar
128.	31151018	Mexanik (avtotexnikalardan foydalanish, texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash bo'yicha)
129.	72319006	Avtotexnikalarga xizmat ko'rsatish bo'yicha chilangar
130.	93330009	Yukchi
131.	93330005	Ombor yukchisi
132.	13241013	Yuk ombori boshlig'i
133.	52300012	Yuk kassiri
134.	43239024	Yukni izlash bo'yicha agent
135.	42210006	Yuklarga ishlov berish bo'yicha agent
136.	24313005	Xavfli yuklar bo'yicha mutaxassis
137.	31292012	Koordinator
138.	43211007	Talab qilinmaydigan bagaj omborchisi
139.	42210014	Ro'yxatga olish agenti
140.	93330009	Yukchi-jamlovchi
141.	42210014	Bagajni qidirish mutaxassisi
142.	42210014	Alohida toifadagi yo'lovchilarga xizmat ko'rsatish bo'yicha agent
143.	96210001	Bagaj tashuvchisi
144.	42210006	Bagajlarga ishlov berishni tashkillashtirish bo'yicha agent
145.	12222001	Aloqa markaz rahbari
146.	34350088	Suxandon-axborotchi
147.	42220001	Axborot ta'minoti agenti
148.	42230001	Axborot murojaatlari operatori
149.	42249011	Ustuvor xizmat ko'rsatish zallari navbatchisi
150.	42249005	Ona va bola xonasi navbatchisi
151.	83432001	Bagaj aravachalarining operatori
152.	13244011	Aerovokzal (majmuasi xizmati) boshlig'i
153.	31540030	Yo'lovchilar tashuvlari dispetcheri (axborotni qabul qilish va qayta ishlash)
154.	43232007	Bagaj bo'yicha dispetcher
155.	31540008	Transfer tashuvlari dispetcheri
156.	31540006	Havo kemasiga majmuaviy xizmat ko'rsatish bo'yicha dispetcher

5. Yangi ishlab chiqilishi rejalashtirilgan kasbiy standartlar haqida ma'lumot

T/r	Kasbiy standartlar soni	Qamrab olinadigan lavozim (kasb)lar soni	Ishlab chiqiladigan yil va oy
1.	4	13	2025-yil, dekabr
2.	12	36	2026-yil, dekabr

